



SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI O'QITUVCHILARIDA KO'P UCHRAYDIGAN KASALLIKLAR TAHLILI

Mahammadiev B.F., Raximova D.J.

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti

Samarqand, O'zbekiston

Kirish. Hozirgi kunda dunyo bo'yicha aqliy mehnat kishilari jumladan, o'qituvchilar orasida ayrim kasalliklarning ko'payganligi kuzatilmoqda. Olimlarning fikriga ko'ra bu kasalliklarning 70% kasbiy faoliyat bilan bog'liqligi aytilmoqda. Bu kasalliklar orasida gipertoniya, yurak ishemik kasalliklari, qandli diabet, turli xildagi bo'g'im kasalliklari, nevroz holatlari yuqori o'rinda turadi. Bundan tashqari ularda kunning asosiy qismini yopiq joylarda (auditoriyalarda) o'tkazilganligi sababli, ultrabinafsha nurining etishmovchilik holatlari va buning oqibatida esa, vitamin D tanqisligi va kalsiy-fosfor almashinuvi buzulishi va nitajada osteoparoz, osteoartroz kabi holatlarining kuchayishi kelib chiqadi. Olimlarning tadqiqotlari natijalari shuni ko'ratadiki bu kasalliklar asosan mehnat faoliyatidagi stress faktorlari, kam harakat turmush tarzi, noto'g'ri ovqatlanish bilan bog'lik.

Tadqiqot maqsad. Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti o'qituvchilari orasida ko'p uchraydigan kasalliklarni o'rganish va keltirib chiqaruvchi sabablarini aniqlash..

Tadqiqot materiallari va usullari. Samarqand Davlat Tibbiyot Universitetining 78 nafar 31-73 yoshgacha bo'lgan 42 nafar ayol (53.8%) va 36 nafar erkak (46.2%) o'qituvchilar o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi.

Tadqiqot natijalari. So'rovnoma natijasiga ko'ra 45 yoshdan 73 yoshgacha bo'lgan, anamnezida nasliy moyillik aniqlanmagan 12 nafar o'qituvchilarda qandli diabet (17,9% - 4 nafar erkak va 8 nafar ayol), 48 yoshdan 71 yoshgacha bo'lgan 11 nafar o'qituvchilarda arterial gipertenziya (16,4% - 4 nafar erkak va 7 nafar ayol), 38 yoshdan 56 yoshgacha bo'lgan 8 nafar o'qituvchilarda yurak ishemik kasalliklari (12% - 5 nafar erkak va 3 nafar ayol), 38 yoshdan 64 yoshgacha bo'lgan 7 nafar o'qituvchilarda artrit va artroz (10,5% - 3 nafari erkak va 4 nafari ayol), 41 yoshdan 73 yoshgacha bo'lgan 13 nafar o'qituvchilarda semizlik (19,5% - 8 nafari ayol va 5 nafari erkak), 36 yoshdan 57 yoshgacha bo'lgan 11 nafar o'qituvchilarda oyoq venalarining varikoz kengayishi (16,4% - 8 nafar ayol va 3 nafari erkak), 23 yoshdan 47 yoshgacha bo'lgan 5 nafar o'qituvchilarda xar xil sabablarga ko'ra bosh og'rigi (7,4% - 4 nafari ayol va 1 nafari erkak) aniqlandi. Tekshiruv natijalariga ko'ra 85,9% umumiy tekshiriluvchilardan ayollarning ulushi 62,6%, erkaklarning ulushi esa 37,3% ga to'g'ri keladi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, o'qituvchilar o'rtasida kelib chiqadigan kasalliklarning asosiy qismini semizlik 19,5%, qandli diabet 17,9%, arterial gipertenziya 16,4% ni tashkil qildi. Yuqorida ko'rsatilgan tahlil natijalari bo'yicha semizlik, qandli diabet va arterial gipertenziya va oyoq venalarinig varikoz kengayishi erkaklarga nisbatan ayol o'qituvchilarda ko'proqqayd etilishi ma'lum bo'ldi.